

QQSNI AVTOMATIK QAYTARISH MEXANIZMI - TADBIRKORLIKNI
QO‘LLAB-QUVVATLASHNING YANGI BOSQICHI

B.A.Axmatov

Narpay tuman adliya bo‘limi

YXKM boshyuriskonsulti

KIRISH:

Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyati uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda tadbirkorlar faoliyatiga ortiqcha ma‘muriy yuklarni kamaytirish, soliq tizimini soddalashtirish hamda biznes va davlat o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. 2026-yil 26-maydagi “Kichik biznes subyektlarining o‘sishi uchun yanada qulay iqtisodiy va ma‘muriy shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida” gi PF-100-sonli davlat rahbarining navbatdagi farmoni ham aynan shu maqsadlarga xizmat qilib, tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

ASOSIY QISM:

Yangi tartiblarga ko‘ra, tadbirkorlik subyektlari uchun hisobot topshirish va ayrim ma‘muriy jarayonlar sezilarli darajada soddalashtirilmoqda. Bu esa biznes vakillarining vaqtini tejash, ortiqcha qog‘ozbozlik va byurokratik to‘siqlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tekshiruvlar sonining qisqartirilishi tadbirkorlarning uzoq yillardan buyon bildirilayotgan taklif va e‘tirozlariga amaliy javob bo‘ldi. Farmonda soliq tizimiga oid qator yangiliklar ham nazarda tutilgan. Jumladan, ayrim korxonalar uchun soddalashtirilgan tartib asosida 6 foizlik qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) to‘lash imkoniyati yaratilmoqda. Bunda korxonalar o‘z faoliyatining iqtisodiy samaradorligidan kelib chiqib, o‘zlariga eng maqbul soliq tizimini tanlash huquqiga ega bo‘ladi. Mazkur yondashuv tadbirkorlarga biznes modelini mustaqil ravishda shakllantirish va moliyaviy xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi.

Islohotlarning eng muhim jihatlaridan biri QQSni avtomatik qaytarish mexanizmining joriy etilishidir. Avvalgi amaliyotda QQS bo‘yicha qaytarilishi lozim bo‘lgan mablag‘larni olish ma‘lum vaqt talab etar edi. Natijada korxonalarining aylanma mablag‘lari muomaladan vaqtincha chiqib qolardi. Endilikda esa avtomatik qaytarish tizimi tadbirkorlarga ushbu mablag‘larni tezkor ravishda qaytarib olish imkonini yaratadi. Bu esa korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, investitsiya va ishlab chiqarish hajmlarini oshirishga xizmat qiladi.

15-Iyun, 2026-yil

Shuningdek, ayrim xodimlarni soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirish imkoniyatining yaratilishi ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu tartib mehnat munosabatlarini qonuniylashtirishga, xodimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga hamda norasmiy bandlik darajasini kamaytirishga xizmat qiladi. Natijada tadbirkorlik faoliyatining shaffofligi va samaradorligi yanada oshadi.

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda, QQSni avtomatik qaytarish mexanizmi, ma'muriy tartib-taomillarning soddalashtirilishi, tekshiruvlar sonining qisqartirilishi hamda soliq tizimidagi yangi imkoniyatlar tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashning muhim omillaridan biridir. Ushbu islohotlar biznes yuritish uchun yanada qulay sharoit yaratib, tadbirkorlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi va mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.